

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son qarorining 7-ilovasiga asosan
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan budget xarajatlarining maqsadli
indikatorlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2025-yil II-chorak ijrosi to‘g‘risida**

HISOBOT

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O‘lchov birligi	2025-yil uchun jami	01.07.2025 holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilarni huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi	mlrd.so‘m	12,588	5,154	7,434	40,94%	Qo‘mita markaziy apparati va Qo‘mita huzuridagi Markazda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hisobiga 1-yarim yillikda yillik reja 40,94 foizga bajarilgan..
<u>Strategik maqsad:</u> Tadbirkorlar va iste’molchilarga tovar va moliya bozorlariga kirish uchun teng sharoitlarni ta’minlash va raqobat cheklanishining oldini olish							
<u>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</u>							
1.	Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy qilinishi.	dona	60	42	18	70,0%	2025-yilda jami 60 ta (2-chorak rejasi 20 ta) korxona faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish belgilangan bo‘lib, shundan 2025-yilning 6 oyi davomida 42 ta davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi to‘liq joriy etildi.
2.	Raqobat holati tahlil qilinadigan tovar, moliya va raqamli bozorlar soni.	dona	25	13	-12	52,0%	Qo‘mita tomonidan 2025-yilning 6 oyi davomida 108 ta tovar va xizmatlar bozorlari tahlil qilindi. Shundan, 13 ta bozorlar to‘liq (2-chorak rejasi 12 ta), 30 ta tovar va ish xizmatlarning bozorlarda muqobillari mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan va 65 ta mahsulot bilan to‘yinganligi bo‘yicha ekspress tahlillar o‘tkazildi. Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan choraklik rejaga asosan ijro 108 foizga bajarildi . Yil yakuniga qadar qolgan 12 ta bozorlar to‘liq tahlil qilinishiga erishiladi .
<u>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</u>							
3.	Reklama to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishi darajasi (jami o‘tkazilgan monitoringlarga nisbatan)	foiz	22	21,8	0,2	100,9 %	Qo‘mita tomonidan 2025-yilning 6 oyi davomida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messengerida tashkil qilingan guruh va kanallarda, tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) reklamalarni joylashtirilishi va tarqatilishi bo‘yicha jami 12 752 ta o‘rganishlar o‘tkazilgan.

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O'lchov birligi	2025-yil uchun jami	01.07.2025 holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
							O'rganish (monitoring)lar natijasida 2 780 ta (21,8%) holatda turli kamchiliklar aniqlanib, ularni tezkor bartaraf etish choralari ko'rilgan.
4.	Tovarlarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha nazorat xaridlari soni.	dona	315	193	122	61,3%	2025-yilning 6 oyi davomida jami 193 nomdagi mahsulotlar nazorat xarid qilinib (2-chorak rejasini 170 ta), akkreditasiyadan o'tgan laboratoriyalarda tekshirilganda, ularning 44 nomdagisi (22,7%) amaldagi texnik jihatdan tartibga solish hujjatlariga nomuvofiqligi aniqlangan. Nomuvofiqligi aniqlangan mahsulotlarni savdo rastalaridan qaytarib olish va belgilangan tartibda chora ko'rish uchun O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuborilgan.